

**O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi: mazmuni, maqsadi, va vazifalari
to‘g‘risida ayrim mulohazalar.****Qodirjonova Gulsanam Sherzodbek qizi***ADCHI Ingliz filologiyasi,**o ‘qitish metodikasi va**tarjimashunoslik fakulteti**201-guruh talabasi***Abdullayev Sirojiddin***Ilmiy maslahatchi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Oliy ta’lim jarayonidagi o‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi fani to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Shu bilan birgalikda fanning asosiy maqsad, vazifalariga ham alohida to‘xtalib o‘tiladi

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, rasmiy uslub, kasbiy terminologiya, ilmiy-texnik matnlar.

Аннотация. В данной статье рассматривается использование узбекского языка в сфере высшего образования. Также уделяется особое внимание основным целям и задачам данной дисциплины.

Ключевые слова: узбекский язык, официальный стиль, профессиональная терминология, научно-технические тексты.


Annotation. This article discusses the subject of the use of the Uzbek language in the field of higher education. It also highlights the main goals and objectives of the subject.

Key words: Uzbek language, official style, professional terminology, scientific and technical texts.

Har bir xalqning o‘z tili uning tarixi, qadriyatları va o‘zligini saqlab turuvchi muhim kuch hisoblanadi. Shuning uchun ham ko‘p davlatlar o‘z ona tilisiga o‘zgacha muhabbat qo‘yadilar. Albatta, bizning shunday muqaddas ne’matimiz–ona tilimiz –“O‘zbek tili”dir.

Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, zaminimizda o‘zbek tilimiz davlat tili hisoblanmasidan avval bir nechta tillar hukmronlik qilib keldi. “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili haqida”gi qonun qabul qilindi (1989-yil 21-oktyabr). Bu qonun o‘zbek xalqi milliy ongingin rivojlanishida, mamlakat mustaqilligi mustahkamlanishida, madaniy merosning tiklanishida muhim rol o‘ynadi. Shu qaror qabul qilingan kundan boshlab mamlakatimizda ish qog‘ozlari, darsliklar, teledasturlar va shu kabilar o‘zbek tilida yuritila boshladi. Jumladan Oliy ta’lim dasturlari ham. Yildan-yilga barcha soha svilizatsiyasi bilan birgalikda davlat tiliga bo‘lgan e’tibor ham kuchaydi. Til to‘g‘risida turli xil ta’lim muassasalari, darsliklar, xususan Oliy ta’lim jarayonidan o‘rin olgan “O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi” fani ham tashkil qilindi.

Ushbu fanning tashkil etilishidan maqsad bisyor, albatta. Talaba qanday sohada tahsil olmasin bakalavr jarayoni turli xil maqolalar yozish, ilmiy ishlar tayyorlash, ayrim




MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

holatlarda nutq so‘zlash kabi hollarni qamrab oladi. Shu kabi ilmiy ishlarni xatosiz qila olish uchun esa, albatta, o‘zbek tilidan to‘g‘ri foydalana olishni bilish kerak. Xuddi shu bilimlarni o‘rgatish esa, ushbu fanning asosiy maqsadlaridan biridir. Qolaversa, har bir mutaxassislikda fanga oid bo‘lgan turli xil terminlar va sohaga oid ilmiy matnlar mavjud. Odatda, bu kabilar umumxalq tilida ko‘p qo‘llanilmaydigan talaba uchun ham notanish bo‘ladi. Masalan, tibbiyat sohasidagi “anesteziya”, qurilish sohasidagi “monolit” yoki til sohasidagi “fonema”, “semantika” kabi kasbiy terminlarni asl ma’nosini o‘rgatish va ularni o‘z o‘rnida qo‘llashni ham, o‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi fanning maqsadlari turkumiga kiradi. Fanning yana bir maqsadi hisoblanuvchi, yuqorida aytib o‘tganimiz ya’ni nutq so‘zlash jarayoniga to‘xtaladigan bo‘lsak, bu uslub o‘z o‘rnida turli xil guruahlarga bo‘linib ketadi va bularning barchasidan talabalar to‘g‘ri foydalana olishi zarurdir. Masalan, o‘qish jarayonidan turli xil hujjatlar, ariza yoki ma’lumotnomma yozishda rasmiy uslubdan, ayrim maqolalar yoki nutqda publitsistik uslubdan foydalaniлади

O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi fanning maqsadi kabi vazifalari ham mavjud, albatta. Darsliklar bo‘yicha tuzilgan qo‘llanmalarga nazar solsak ular quyidagicha keltirilgan: mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida davlat tilining imkoniyatlaridan to‘liq va to‘g‘ri foydalinishga erishishni ta’minlash; Kasbiy terminologiyani, egallanayotgan soha bo‘yicha nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalarni o‘zbek tilining yozma va og‘zaki nutqi me’yor va qoidalari asosida mukammal o‘zlashtirishga, nutq xususiyatlarini bilish va ulardan foydalana olish, matn tuzish, uni tahlil va tahrir qilish, soha bo‘yicha dastlabki ilmiy tadqiqot olib borish jarayonlari, sohaviy hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirish, kasbiy muloqot yuritish ko‘nikmalariga ega bo‘lish va ularga nisbatan shaxsiy munosabatni o‘zbek tili adabiy normalariga muvofiq holda ifodalashga erishishni ta’minlashdir.

Bugungi kundagi til sohasidagi yutuqlar, albatta, fanning o‘z vazifasini a’lo darajada uddalayitganini bildiradi. Ushbu vazifalarni talab darajasida shunday o‘qitilishi uchun har tomonlama ishlar olib borilmoqda. Jumladan, Prezidentimiz tomonidan tobora bu soha uchun ham keng qulayliklar yaratilmoqda va darsliklar malakali ustozlarga ajratib berilmoqda.

Xulosa qilib aytganda o‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi fani jamiyatimiz uchun kerakli fanlardan biridir. Bu fanning mazmuni, maqsadi talabalarga tilining asl mohiyatini tushuntirish, o‘z yo‘nalishlarida mavjud bo‘lgan barcha terminlar va notanish bo‘lgan barcha ilmiy atamalarni to‘g‘ri anglash va ulardan o‘z o‘rnida foydalana olishdir. Talabalarning bu bilimlarni o‘rgana olishini ta’minlash esa fanning vazifasidir.



**MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS**

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.N.N. G'offarov. "O'zbek tilining sohada qo'llanilishi ", Chirchiq, 2022, 6-bet.

2.X. Shokirova. "O'zbek tilining sohada qo'llanilishi ", Farg'ona, 2023.

3. G. Yo'ldoshev. "O'zbek tilining uslubiy tizimi".

4. G. Yo'ldoshev. "Til va tafakkur", Toshkent, O'qituvchi, 1985.

Foydalanilgan internet tarmoqlari:

1. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Davlat_tili

